



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

## COPY RIGHT



**ELSEVIER**  
**SSRN**

**2020 IJIEMR.** Personal use of this material is permitted. Permission from IJIEMR must be obtained for all other uses, in any current or future media, including reprinting/republishing this material for advertising or promotional purposes, creating new collective works, for resale or redistribution to servers or lists, or reuse of any copyrighted component of this work in other works. No Reprint should be done to this paper, all copy right is authenticated to Paper Authors

IJIEMR Transactions, online available on 22nd Dec 2020. Link

[:http://www.ijiemr.org/downloads.php?vol=Volume-09&issue=ISSUE-12](http://www.ijiemr.org/downloads.php?vol=Volume-09&issue=ISSUE-12)

**DOI: 10.48047/IJIEMR/V09/I12/63**

Title: **ODDIY SHIRINMIYA (GLYRCYRRHIZA GLABRA L.)NING SHO'RCHI VA TERMIZ TUMANI SHAROITIDA BIOMETRIK KO'RSATKICHLARI**

Volume 09, Issue 12, Pages: 346-349

Paper Authors

**O'ralov Beknazar Saibnazar o'g'li**



USE THIS BARCODE TO ACCESS YOUR ONLINE PAPER

To Secure Your Paper As Per **UGC Guidelines** We Are Providing A Electronic Bar Code

## ODDIY SHIRINMIYA (*GLYRCYRRHIZA GLABRA L.*)NING SHO'RCHI VA TERMIZ TUMANI SHAROITIDA BIOMETRIK KO'RSATKICHLARI

O'ralov Beknazar Saibnazar o'g'li

Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası o'qituvchisi

bek.uralov0624@mail.ru

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada Termiz va Sho'rchi tumanida o'suvchi oddiy shirinmiyaning biometrik ko'rsatkichlarini aniqlash va ikki tuman sharoitida o'simlikning biometrik ko'rsatkichlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash.

### Kalit so'zlar:

Shirinmiya, murakkab barg, g.glabra, novda, to'pgul, gulband.

O'simliklar dunyosi insoniyat hayotida oziq-ovqat, dori-darmon sifatida qadimdan ma'lum. Xalq tabobatida dorivor o'simliklardan har xil damlamalar va malhamlar sifatida foydalanib kelishgan, keyinchalik fan va texnikaning asta-sekin rivojlanishi bilan olimlarning ularga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. Mana shunday o'simliklar orasida oddiy shirinmiyaning dorivorlik xususiyatlari alohida qadrlanadi.

*Glycyrrhiza glabra L* – shirinmiya bu o'simlikni xalq orasida chuchukmiya, qizilmiya kabi nomlar bilan nomlashadi. Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida yovvoyi o'simlik sifatida uchraydi [1].

Shirinmiya turkumi *Glycyrrhiza glabra L.* Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar) Fabaceae (Leguminosae) oilasiga mansub o'simliklardir. O'rta Osiyoda bu turkumning 9 ta turi O'zbekistonda shu jumladan Surxondaryo viloyatida 5 turi uchraydi [2].

1. Oddiy shirinmiya - *Glycyrrhiza glabra L.*
2. Ural shirinmiyasi - *Glycyrrhiza uralensis Fisch.*
3. Tikanli shirinmiya - *Glycyrrhiza aspera Pall.*

4. Buxoro shirinmiyasi - *Glycyrrhiza bucharica Rgl.*

5. Qizilmevali shirinmiya - *Glycyrrhiza eurycarpa P.S.L*

Oddiy shirinmiya - *Glycyrrhiza glabra L*ning ikki tuman sharoitida biometrik ko'rsatkichlarini aniqladik va quyidagi natijalarni kuzatdik.

Oddiy shirinmiya o'simligining Termiz tumani sharoitida poyasi tik o'sib, bitta o'simlikda 4 tadan 14 tagacha novda hosil bo'lishi mumkin. Poyasi kam shoxlangan bo'lib, tukchalar bilan qoplangan. Barglari poyada ketma-ket joylashgan bo'lib, toq patsimon murakkab bargdir. Bitta novdada bunday murakkab barglarning soni 9-14 taga yetadi. Barglarining uzunligi 11 cm dan 14.5 cm gacha yetadi. Murakkab barglardagi umumiy bandga 11 tadan 15 tagacha bargchalar o'zlarining bandchalari bilan birikadi. Barg plastinkasining uzunligi 2-4 cm, eni 1-2 cm keladi, barg bandining uzunligi 2-4 cm ga yetadi [3].

Termiz tumani sharoitida oddiy shirinmiya o'simligining barglari haqidagi malumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Sho'rchi tumani sharoitida uchta shirinmiya o'simligi ustida tajribalar olib bordik. Birinchi o'simlikda murakkab toq patsimon barglar soni 184 tani tashkil etdi, ikkinchi o'simlikda 204 ta, uchinchi o'simlikda esa 147 tadan bo'lib ketma-ket joylashgan. Har bir o'simlikda o'ziga hos shoxlanish kuzatildi. Xususan birinchi o'simlikda 19 ta, ikkinchi o'simlikda 39 ta, uchinchi o'simlikda 16 ta yon shoxchalar mavjud. Murakkab barglarning uzunligi ham turlichaligi kuzatildi. Birinchi o'simlikda 8-21 cm bandining uzunligi esa 1.4-2.2 cm gacha, ikkinchi o'simlikda barg uzunligi 7.1-20.7 cm bandining uzunligi 1.1-2.2 cm gacha, uchinchi o'simlikda esa 7.9-22.8 cm barg bandining uzunligi 1.5-2.4 cm gacha uzunlikda bo'lishini aniqladik. Olingan uchta o'simlikning har birida murakkab barglardagi bargchalarning soni, bargchalarning uzunligi, bargchalarning eni, bargchalar bandchalarining uzunligida ham farqlar kuzatildi. Jumladan birinchi o'simlikda bargchalar soni 7-17 ta, uzunligi 1.7-4.4 cm, eni 1-1.9 cmni, bargchalar bandchalari esa 2-5 mm, ikkinchi o'simlikda bargchalar soni 7-15 ta, uzunligi 1.1-4.4 cm, eni 0.5-2 cm ni, bargchalarning bandchalari esa 1-4 mm ni, uchinchi o'simlikda esa bargchalar soni 7-17 ta, uzunligi 1.8-4.5 cm, eni 0.8-1.6 cm, bargchalar bandchasining uzunligi esa 2-4 mmga yetishini aniqladik (2-jadval).

Shirinmiya o'simligining Termiz tumani va Sho'rchi tumani sharoitida barglari haqida ma'lumotlar berib o'tildi. Endilikda Termiz shahri sharoitida o'suvchi shirinmiyaning barg o'lchamlari haqida ma'lumotlar to'pladik [4].

Termiz shahri sharoitida o'suvchi uchta shirinmiya o'simligini ajratib oldik. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra birinchi o'simlik

4 ta novda hosil qilib, novdalar 45 ta yon shoxlar chiqargan. O'simlikda jami bo'lib 381 ta toq murakkab barglar mavjud, ularning uzunligi 7-16 cm barg bandining uzunligi 1.7-1.9 cm, murakkab barglarda 7-15 ta bargchalar joylashib ularning uzunligi 2.5-2.7 cm, eni 0.8-1.1 cm, bargchalar bandchalari uzunligi 0.3 cm. Ikkinchi o'simlik ikkita novda hosil qilib, novdalarda jami 22 ta yon shoxlar bo'lib, o'simlikda 234 ta toq patsimon murakkab barglar mavjud. Murakkab barglarning uzunligi 11-17.7 cm, bandi 1.7-1.8 cm, barg yaprog'ining uzunligi 2.6-3.5 cm, eni 1-1.2 cm, bargchalar bandchalari uzunligi 0.3 cmni tashkil qiladi. Uchinchi o'simlik ham ikkita novda, 33 ta yon shoxlarga ega. O'simlikdagi murakkab barglar soni 286 tani, barglarning uzunligi 11-20 cm, murakkab barglar bandining uzunligi esa 1.8-2.5 cm, murakkab bargdagi bargchalar soni 11-13 ta, barg yaprog'ining uzunligi 1.7-4.3 cm, eni 0.8-2 cm, bargchalardagi bandchalarning uzunligi 0.2-0.4 cm ni ekanligini aniqladik (3-jadval).

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki o'simliklarning barglari soni, uzunligi, bargchalar soni, bargchalarning eni, bo'yining uzunligi o'simlikning o'sayotgan joyiga, iqlimiga, tuprog'iga bog'liq.

ODDIY SHIRINMIYA BARGLARINING TERMIZ TUMANI SHAROITIDA O'LCHAMLARI

1-jadval

Olingan o'simliklar	O'simlikdagi barglar soni	Barglar uzunligi, cm	Bargchalar soni	Bargchalar o'lchami, cm		
				Barg plastinkasining		Barg bandi
				Uzunligi	Eni	
1	14	11.5-14.0	13-15	2.5-3.5	1.0-1.5	2-4
2	10	12.0-14.0	11-13	2.0-2.8	1.0-1.5	2-3
3	9	12.0-14.5	11	2.0-4.0	1.0-2.0	3-4

ODDIY SHIRINMIYA BARGLARINING O'LCHAMLARI SHO'RCHI TUMANI SHAROITIDA

2-jadval

Olingan o'simliklar	O'simlikdagi barglar soni	Yon shoxchalar soni	Yon shoxchalardagi barglar soni	Barglarning uzunligi (cm)	Barg bandining uzunligi (cm)	Bargchalar soni	Bargchalar o'lchamlari		
							Barg plastinkasi		Bargchalar bandchalar uzunligi (mm)
							Uzunligi	Eni	
1	184	19	7-15	8-21	1.4-2.2	7-17	1.7-4.4	1-1.9	2-5
2	204	39	3-11	7.1-20.7	1.1-2.2	7-15	1.1-4.4	0.5-2	1-4
3	147	16	3-11	7.9-22.8	1.5-2.4	7-17	1.8-4.5	0.8-1.6	2-4

Olingan	O'simlikdagi barglar soni	Yon shoxchalar	Barglarning uzunligi, cm	Barg bandining	Bargchalar soni	Bargchalar o'lchami, cm
---------	---------------------------	----------------	--------------------------	----------------	-----------------	-------------------------

						Barg plastinkasining		Barg bandi
						Uzunligi	Eni	
						1	381	45
2	234	22	11-17.7	1.7-1.8	13-17	2.6-3.5	1-1.2	0.2-0.3
3	286	33	11-20	1.8-2.5	11-13	1.7-4.3	0.8-2	0.4-0.4

3-jadval

ODDIY SHIRINMIYA BARGLARINING O'LCHAMLARI TERMIZ SHAHRI SHAROITIDA

Novdalarida joylashgan barglar qo'ltig'ida shingil to'pgullar joylashgan.

Har bir novdada 3 tadan 10 tagacha to'p gul hosil bo'lishi mumkin (4-jadval).

ODDIY SHIRINMIYA TO'PGULLARI HAQIDA MALUMOT. SHO'RCHI TUMANI SHAROITIDA

4-jadval

O'simliklar	To'pgullar soni	To'pgul uzunligi (cm)	To'pgul bandi uzunligi (cm)	To'pguldagi gullar soni	To'pguldagi gullar uzunligi (mm)	Gulbandining uzunligi
1	17	2-11.5	1.1-2.8	6-38	10-11	1-2
2	42	3.5-12.5	3-3.4	17-33	11-12	1-1.5
3	18	4.4-9.9	2.1-3.6	16-46	10-11	0.9-1

Tajribalarimizni Termiz sharoitida o'suvchi shirinmiyalardan tashqari sho'rchi tumani sharoitida o'suvchi shirinmiya o'simligining tabiiy populyatsiyalarida ham olib bordik. Jadvaldagi malumotlardan ko'rinib turibdiki o'rganish uchun olingan o'simliklarda to'pgullar soni 17-42 tagacha, to'pgullarning uzunligi esa 2-12.5 cm gacha, to'pgul gulbandining uzunligi 1.1-3.6 cm gacha, to'pguldagi gullar soni 6-46 tagacha, to'pguldagi gullarning uzunligi 1-1.2 cm, gulbandining uzunligi 0.9-2 mm ga teng ekanligini aniqladik [5].

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov A.M., Raxmatova M.U. "Bioecological features of *Glycyrrhiza L.*" // Modern research and development, no. 3 (20). Moscow, 2018. –S. 110-113.
2. Begmatov A. M., Sattarov A.S. Bioecological properties of *Stevia rebaudiana* Bertoni in introduction conditions. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. Volume 2 Issue 10, 2020. -P. 63-68.
3. Sattarov A.S., Begmatov A. M. Bioecology of *melissa officinalis* plant In Introduction conditions. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. Volume 2 Issue 10, 2020. -P. 69-73.





4. Begmatov A. M., Rakmatova M.U. Bioecological properties of *Helianthus tuberosus* in introduction Conditions. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*. Volume 2 Issue 11, 2020. -P. 82-85.

5. Sherqulova J.P., Mustafaev I.M., Iminova M.M., Sattarov A.S. Species, host range and

geographical distribution of microfungi (dothideomycetes) on introduced trees and shrubs in southern Uzbekistan. *Iranian journal of botany*, 25 (1), 2019. DOI; 10.22092. ijb.2019.115956.1187. –P. 72-77.



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

*A Peer Reviewed Open Access International Journal*

[www.ijemr.org](http://www.ijemr.org)